

YANGI AVLOD ONA TILI DARSLIKHLARI: MILLIY TA'LIMDA XORIJ TAJRIBASI VA SAMARADORLIK TALQINI

Ne'matjonova Dildora

Namangan davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

nematjonovadildora11@gmail.com

Tel: 998 88 767 22 29

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.12.2025

Revised: 24.12.2025

Accepted: 25.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

ona tili darsliklari, milliy
ta'lim, xorijiy tajriba, tanqidiy
fikrlash, pedagogik
tahlil, projected based learning
(PLN) tajribasi.

ANNOTATSIYA:

Til shunchaki qoidalar tizimi emas, balki tafakkur mahsulidir. O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangi avlod ona tili darsliklari o'quvchini nima? Deb emas, qanday? va nima uchun? Deb savol berishga o'rgatmoqda. Mazkur maqolada, xalqaro tajribaning milliy darsliklardaagi samarali integratsiyasi tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada maktab darsliklari uchun joriy etilyotgan yangi avlod ona tili darsliklari yuzasidan Finlyandiya, Singapur va Germaniya kabi davlatlarning ta'limiy loyihalari maktab darsliklarga qanday integratsiya qilingani yuzasidan va ularning o'quvchilar savodxonligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bugungi mutassil tez fursatda o'zgaryotgan zamonga kelib ta'lim standarti o'quvchidan nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini talab etmoqda. Yangi avlod ona tili darsliklarida (masalan, 5-9-sinflar) loyiha ishlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilingan.

Real hayotiy muammolar: O'quvchilar grammatik qoidalarni "Tabiiy boyliklarni asrash" yoki "Zamonamiz qahramonlari" kabi ijtimoiy muhim mavzular orqali amaliyotda qo'llaydilar.

Bosqichli tizim: Har bir loyiha mavzu tanlash, rejalashtirish, tadqiqot o'tkazish va yakuniy natijani (taqdimot, buklet yoki video) namoyish etish bosqichlaridan iborat. **Ko'nikmalarini rivojlantirish;** Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish Finlyandiya tajribasiga asoslangan PBL (project based learning) loyihasiga ko'ra amalga oshirilmoqda. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Eski darsliklarda asosiy e'tibor qoidalar va ularni tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, yangi darsliklarda kommunikativ yondashuv ustuvorlik qiladi. Bu borada Germaniya va Singapur tajribasidan foydalanilgan.

O'quvchi endi "ot" yoki "fe'l"ning ta'rifini yodlamaydi, balki ularni nutqda o'rinli qo'llashni o'rganadi..

2. Finlyandiya tajribasi: Soddalik va amaliylik

Finlyandiya ta'lim tizimi dunyoda eng samarali hisoblanadi. O'zbekistonning yangi darsliklarida ushbu tajribaning quyidagi jihatlari aks etgan. Hajmning ixchamligi va mazmunning boyligi, Ma'lumotlar o'quvchi yoshiga mos, ortiqcha akademik yuklamalarsiz beriladi. Hayotiy vaziyatlar topshiriqlar kundalik hayot bilan bog'langan (masalan, e'lon yozish, elektron xat jo'natish, debat yuritish). Ushbu turdagi topshiriqlar project based learning ya'ni loyihaga asoslangan ta'lim tajribasi sifatida ko'riladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ona tilini bilish darajasi o'quvchining matnni qay darajada tushunishi bilan o'lchanadi. Yangi darsliklar o'quvchilarda quyidagilarni shakllantiradi. O'qib tushunish (Reading Literacy), matn ichidan ma'lumotni topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarish. Tinglab tushunish: Audio materiallar orqali axborotni qabul qilish ko'nikmasi.

4. Raqamli va interfaol yondashuv

Yangi darsliklar faqat qog'oz nashri bilan cheklanmaydi. Ularga biriktirilgan QR kodlar orqali o'quvchilar video-darslar, interfaol mashqlar va qo'shimcha lug'atlarga kirish imkoniga ega. Bu tajriba Janubiy Koreya va Singapur ta'lim modelidan olingan bo'lib, dars jarayonini o'yinga yaqinlashtiradi (gamification).

Samaradorlik ko'rsatkichlari. Xorij tajribasiga asoslangan ushbu metodikaning samaradorligi quyidagilarda ko'rinmoqda: Muloqot erkinligi: O'quvchilarda o'z fikrini og'zaki va yozma bayon qilishdagi qo'rquv yo'qoladi. Mantiqiy tahlil: O'quvchilar tayyor qoidalarini takrorlashdan ko'ra, "Nima uchun?" va "Qanday?" degan savollarga javob izlashga o'rganmoqda. Savodxonlik darajasi: Til qoidalarini amaliyotda qo'llash orqali imlo xatolarining tabiiy kamayishi kuzatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod ona tili darsliklarini yaratishda xorijiy ta'lim tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ona tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuvlarni milliy qadriyatlar, tilning tabiati va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yangi avlod darsliklarida interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda raqamli resurslardan foydalanish xorijiy tajribaning ijobiy jihatlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, ularni bevosita ko'chirib olish emas, balki milliy ta'lim ehtiyojlariga mos holda ijodiy talqin qilish muhimdir. Demak, xorij tajribasining samaradorligi uni milliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Yangi avlod ona tili darsliklari milliylik va zamonaviylik uyg'unligida ishlab chiqilgan taqdirdagina, o'quvchilarda tilga nisbatan ongli munosabat, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I, Do'stjonov U "Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni" Til va adabiyot ta'limi 2008
2. Niemi H 2012 teacher's role in finland. Strengths and challenges, european journal of education
3. 7-sinf ona tili darsligi N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyev, A.Mirzaahmedov.